



**O`ZBEKISTAN VA QORAQALPOQISTON XALQ ARTISTI
POLAT MADREIMOV**

Qaraqalpoqiston Respublikasi Nukus shahri.

Ozbekistan mamleketlik kerkem oner ham madeniyat instituti

Nokis filiali

Qosiq ham oyin 3-kurs.

Abipov Baxram Dosnazarovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`zbekistan va Qoraqalpoqiston xalq artisti Polat Madreimov hayoti va ijodiy faoliyati haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: *ertak-pesalar, adabiyot, pedagogika, ijod, yaxshi she`r, qo`shiqlari, doston, ertaklar, she`riy to`plamlar, ijodiy mehnat, pyesa.*

O`zbekistan va Qoraqalpoqiston xalq artisti, shoiri Po`lat Mo`min yoshligidanoq adabiyotga havas qo`ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o`qib yurgan vaqtida adabiyot to`garagiga faol qatnashdi. Adabiyotni qunt bilan o`qib, o`rgandi. O`rta ma`lumot olgach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o`zbek tili va adabiyoti fakultetiga o`qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomladi, aspiranturada o`qidi, maktablarda o`qituvchilik qildi. So`ngra O`zbekiston davlat nashriyotida ishladi. Po`lat Mo`min qayerda ishlamasin, doimo adabiyotga muhabbat bilan qaradi, uni qunt bilan mutolaa qildi, o`rgandi. Kichik-kichik she`rlar yoza boshladi. 1944 yilda “Bahorga sayohat” nomli birinchi she`ri bosilib chiqdi. Birinchi she`rlar to`plami esa 1949 yilda “Sayrang, qushlar” nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. To`plamdan munosib o`rin olgan “Sayrang, qushlar”, “Obod o`lkam”, “Haykal”, “Alla va Jalla” (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqarliligi bilan kitobxonlarning e`tiborini o`ziga jalb etdi.

Bolalarga atab ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonish uchun qobiliyat





va istakning o'ziga yetmaydi. Belinskiy ta'rifi bilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilish kerak. Bu bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo'lsin, nozik ta'b egasi, go'dak tabiati va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimiy, bolalarcha soddadil ham dono bo'lsin, degan mazmuni taqozo etadi. Biz Po'lat Mo'min ijodida ana shunday oliyanob xususiyatlar mujassamligini his etamiz. Shoir butun umrini bolalar orasida o'tkazib kelmoqda. U o'z yosh kitobxonlarining o'y-fikrlarini, orzu-umidlarini yaqindan biladi. Ularning dillaridagini tillarga chiqara biladi.

Shoirning tinimsiz ijodiy mehnati tufayli "Hunardan unar", "To'g'ri o'sgan gul bo'lar", "Aql qayerda bo'lar?", "O'rinbosarlar", "Oltin nay", "Bir yarim Karim", "Endi adashmaydi", "Barcha bola do'st bo'lsa", "Rahmatga rahmat", "Gazpolvon ertak aytar", "Chang yutar botir", "Do'sting qancha ko'p bo'lsa", "Oftob va odob", "Yaxshilarga o'xshasam", "Bu juda soz", "Eson va omon", "Oltmish olti oltin qo'l", "Ustozlar izidan", "Bolalarning baxti kulgan", "Bir yuz bir oltin qo'l" she'riy to'plamlari: "Chanoqvoy bilan Qovoqvoy", "Bahodirning botirligi", "Oq fil yo'qoldi", "Suqatoy-konfetvoy", "Ona bolam deydi" kabi ertaklari, pesalari yuzaga keldi. Bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she'r va qo'shiqlari, doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganki, bu faqat shoirning emas, balki o'zbek bolalar adabiyotining ham yutug'i, obro'si hisoblanadi.

Kimda-kim a'lo va yaxshi baholarga o'qish uchun astoydil intilsa, harakat qilsa, zahmat cheksa, shubhasiz, u maqsadga erishadi, samarali bilim oladi. Agar bu intilish jismoniy mehnat bilan qo'shib olib borilsa, yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Po'lat Mo'min ta'lim va jismoniy mehnatga bag'ishlangan she'rlarida mehnat va mehnatsevar bolalar haqida fikr yuritadi. Ba'zan ishyoqmas, dangasa, yalqov o'quvchilarni tanqid qiladi, ularning kamchiliklarini ochib tashlaydi. Masalan, "Besh oldim, besh!" degan she'rini olaylik. Asar qahramoni uzoq vaqt past bahoga o'qib yuradi, fanlarni ko'ngildagidek o'zlashtira olmaganligidan do'stlari, ota-onasi va o'qituvchilar oldida o'zini gunohkordek his qiladi. O'quvchi





bunday qiyin ahvoldan faqat ko‘proq dars tayyorlashi, kitob o‘qishi bilan qutulib ketishi mumkinligiga ham ishonmaydi. Nima bo‘ladi-yu, bir kuni u uyga berilgan topshiriqni qayta-qayta o‘qiydi, dars va kitobdan boshqa hech narsani o‘ylamaslikka harakat qiladi. Natijada ertasi kuni “besh” baho oladi. Shu-shu bola kitobni sevib qoladi. Qunt qilish, berilgan topshiriq ustida ko‘p mehnat qilish lozimligini tushunib yetadi. O‘zidagi bunday ijobiy o‘zgarishdan xursand bo‘ladi. Boladagi bu quvonch va hayajonni shoir yosh kitobxon ruhiyatiga mos ravishda chizib beradi:

Shunday qilib, do‘stlarim,
Aytsam yurak so‘zlarim,
Yurishib qoldi ishim,
Ko‘payib ketdi “besh”im.

Bolalar shoirining “Tuganmas kon”, “O‘qituvchi baho qo‘yganda”, “Ko‘chalarni to‘ldirib”, “Sizga nima bo‘ldi, o‘g‘il bolalar?”, “Yuqumli “2”lar”, “Bilsa bo‘lar ekan-ku!”, “Sentabrdan kim sevinar?” kabi she‘rlari ham a‘lo va yaxshi o‘qish uchun intilayotgan, harakat qilayotgan bolalar to‘g‘risida yozilgandir.

Ba‘zan o‘quvchi-yoshlar orasida mug‘ambir-u pismiqlik bolalar ham topilib qoladi. Shoirning “Qo‘l ko‘tarib qo‘lga tushdi” degan asari ana shunday bolalarga bag‘ishlangan. Asar qahramoni aslida dangasa, ishyoqmas, qoloq o‘quvchi. U buni o‘qituvchisiga sezdirmaslik uchun har kuni dars paytida “Men aytaman, deb ko‘taradi qo‘l”. O‘qituvchi esa bolaning bunday mug‘ambirligini sezmaydi, u darsni yaxshi o‘zlashtiribdi, deb undan so‘ramaydi. Oxiri bir kuni “Mayli, ayta qol” deydi. Shunda haligi bola savolga javob bera olmay, o‘qituvchi va o‘rtoqlari oldida izza bo‘ladi:

Darvozasiga
Urilganday gol
Qo‘lga tushgandi
U ko‘tarib qo‘l.

Shoir she‘rlarida kichkintoylarning jismoniy ishga intilishlari ham yaxshi





ochib beriladi. Uning “Oftob chiqdi olamga”, “Yer chopildi – javob topildi” she’rlari fikrimizning dalilidir. “Oftob chiqdi olamga” asarida u xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalangan. She’rda bolalarning harakati, urinishi, kattalar ishiga ko‘maklashishi nihoyatda ta’sirli va shirali ifodalangan.


Po‘lat Mo‘min haqiqatan ham oftob – bu olam-olam quvonch, shodlik, mehnat, yashash, yasharish ramzi ekanligini kichkintoy bolalar timsoli orqali yanada yorqinroq, ta’sirliroq aks ettirishga harakat qiladi:

Oftob chiqdi olamga,
Chopib bordim dalamga,
Dadam ko‘chat ekardi,
Salom berdim dadamga.

Po‘lat Mo‘minning “Yer chopildi – javob topildi” asarida mehnatdan zavqlanish tuyg‘usi yorqin ifodalangan. Asar qahramoni dastlab uyga berilgan topshiriq – misollarni ishlay olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi – yer chopadi, terlab-pishadi. Natijada ko‘ngli yorishadi, fikri oydinlashadi. Uyga berilgan misollarni ham yechadi, yerni ham chopadi.

Barcha savolga
Javob topildi.
Shu bahonada
Yer ham chopildi.

Po‘lat Mo‘minning “5” baho qo‘shig‘i”, “Xursandmisiz?, Xursandmiz!”, “Sentabrim”, “Uch baho – puch baho” singari qo‘shiqlari o‘qish, ilmi bo‘lish mavzusiga bag‘ishlangan. O‘z ustida ko‘p ishlash, kitob o‘qish, dars qoldirmaslik “a’lo” o‘qishning mustahkam noydevori ekanligini shoir “Uch baho – puch baho” qo‘shig‘ida yoritib beradi. Onalarni, keksalarni hurmat qilish, e’zozlash (“Achom-achom buvijon”, “Mehribonim onajon!”), o‘zaro hurmat, do‘stlikni joyiga qo‘yish (“Bir jahon bolalarmiz”), har bir shodiyona, bayramlarni zo‘r tayyorgarlik bilan kutib olish, chevarlik kasbini bolalikdan bilib borish (“Ko‘ylagim”) mavzulariga bag‘ishlab shoir o‘nlab qo‘shiqlar yaratganki, bunday qo‘shiqlar bolalarning jon-dilidir.





Po‘lat Mo‘min axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu masala ko‘proq uning “Birovlar”, “Bir odamning afsusi”, “So‘zi shunaqa – o‘zi shunaqa”, “Behzodni bilasizmi?”, “Ulg‘aydimi aqlingiz?”, “Qo‘ling oltin – yo‘ling oltin”, “Birinchi bo‘l, birinchi!” kabi she‘r va qo‘shiqlarida ochib beriladi.

Po‘lat Mo‘min “Alla bilan Jalla”, “Ziyrak fil va ziqna baqqol”, “Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga”, “Unutgan o‘g‘il”, “Oltin nay”, “Dono bola”, “Bilganni qari – bilmaydi pari” singari ertak, dostonlarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangani ko‘rinib turadi.

Po‘lat Mo‘min dostonchi shoir sifatida ham juda qadrlidir. Uning “Oltin nokli bog‘”, “Ko‘cha – ko‘pchilik uchun”, “Eh, rosa shirin ekan!”, “Xolning jiyron velosipedi”, “Ko‘ngil istar yaxshilik” degan poyemalari allaqachon kichkintoylarning sevimli asarlariga aylanib ketgan. Shoirning dostonlarida bolalar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik, o‘qituvchi va jonajon maktabga muhabbat, birlik, baynalmilallik kabi masalalar ilgari surilgan. Bolalar hayotida sodir bo‘ladigan yutuq va kamchiliklar badiiy bo‘yoqlarda, qiziqarli lavhalarda chizib berilgan. Bir so‘z bilan aytganda: maktab o‘quvchilarining hayoti zavq-shavq bilan tasvirlanadi.

Po‘lat Mo‘min o‘zining ertak-pesalari bilan ham yosh kitobxonlar o‘rtasida shuhrat qozondi. Uning “Qovoqvoy bilan Chanoqvoy”, “Suqatoy-konfetvoy”, “Ona bolam deydi, bola onam deydi” nomli fantastik ertak-pesalari uzoq vaqtlardan beri bolalarning quvonchiga quvonch qo‘shib kelayotir.

Qovoqvoyning dangasaligi, lapashangligi, erkaligi, tantiqligini o‘tkir kulgi ostiga oluvchi va Chanoqvoyning bilimdonligi, donoligi va mehribon do‘stligini ulug‘lovchi “Qovoqvoy bilan Chanoqvoy” bolalarni yaxshilikka da‘vat etadi.

Bu asardagi yaxshi fazilatlar dramaturgning boshqa bir ertak-pesasi “Suqatoy-konfetvoy”da ham ko‘ringan. Tematika va g‘oyaviy yo‘nalishi, uslubi jihatidan bu ikki asar bir-biriga yaqin. Unda ham ilm, odob, halollik va mehnatsevarlik ulug‘lanadi. Voqea Bilim xola, Janjal xola, Qurt o‘rtasidagi kurash asosida rivojlanadi.

Po‘lat Mo‘minning butun e‘tibori, ijodining mohiyati bolalarga pokiza hayot yo‘lini ko‘rsatib berishga intilishdan iborat:





Aql, Odob, Fan yo'li,
Yo'llaming eng ma'quli.
Kimki yursa uch yo'ldan,
Ishi keladi o'ngdan.
Yo'llar eltar maktabga,
Yetkazadi maqsadga.

Xulosa qilib aytganda, bolalar Po'lat Mo'minning o'nlab topishmoqlarini ham sevib o'qib o'rganadilar. Bu esa o'z o'rnida ularning zehnlarni charxlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Bolalar adabiyoti" (O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2013) darsligidan
2. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/polat-momin/>
3. Ziyouz.com
- 4.

